YANGI KONSTITUTSIYADA O'QITUVCHILAR HUQUQIY MAQOMINING MUSTAHKAMLANISHI

Yusupov Rahimboy Bekbergan o'g'li
Xorazm viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi.
Shomurotova Umida Ulug'bek qizi,
Zaripova Komila
Xorazm viloyati yuridik texnikumi o'quvchilari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7878279

Inson – davlat va jamiyat uchun maqsadga erishish vositasi emas, aksincha, ana shu maqsadning bosh mazmuni va manbai hamda eng oliy qadriyat bo'lishi lozim. Biz barpo etayotgan Yangi O'zbekiston uchun inson qadri va xalq manfaati, hamma narsadan ustundir!

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangilanayotgan Konstitutsiyamizda yosh avlod tarbiyasida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan o'qituvchilar maqomining mustahkamlanishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, o'zgartirish, o'qituvchilik, ta'lim, 52-modda, ilm-fan, maqom.

Yangi O'zbekistonda zamonaviy konstitutsiyaviy islohotlarning yangi davri boshlanmoqda. Davlatimiz Konstitutsiyasi bizning kelajagimizdir. Barqarorlik va milliy strategik taraqqiyotimizning huquqiy kafolatidir. Konstitutsiya huquqiy davlatning asosiy belgisi – qonuni hisoblanadi. Unda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy xususiyatlari, taraqqiyotining bosh mezonlari, mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari o'z ifodasini topadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, O'zbekiston Konstitutsiyasi mustaqillik yillarida erishgan barcha yutuqlarimizning mustahkam huquqiy poydevori bo'lib kelmoqda. Buni hammamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz. Shu bilan birga, bugun shiddatli taraqqiyotning o'zi oldimizga qo'yayotgan muhim bir talabni chuqur tushunib olishimiz zarur.

Hozirgi tahlikali zamon, yon-atrofimizdagi murakkab vaziyat ona Vatanimiz taqdiriga yanada ulkan mas'uliyat bilan yondashib, kechiktirib bo'lmaydigan strategik qarorlar qabul qilishni taqozo etmoqda.

Ustoz, muallim, mudarris, murabbiy – naqadar sharafli hamda mas'uliyatli kasb. Muallim, ustoz shunday mo'tabar zotki, uning nomi ham, umri ham hamisha boqiydir. Yurtimizda azaldan ularning izzati va hurmati hamisha yuqori bo'lgan, mashaqqatli mehnati ardoqlangan. Inson o'zini anglagan paytdan boshlab ustozga tayanadi, ulardan ta'lim va tarbiya oladi. Har bir inson munosib

sharoitda ta'lim-tarbiya olib, farovon hayot kechirgan taqdirdagina, jamiyat va davlat uyg'unlikda barqaror rivojlanadi. Shuning uchun ham, bugungi kunda jahon miqyosida inson huquq va erkinliklariga, ushbu tushunchalar bilan bog'liq reyting va standartlarga birinchi darajali ahamiyat berilmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda yangilanayotgan Konstitutsiyamizda o'qituvchilarning huquqiy maqomi mustahkamlanmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining 52-moddasida davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi qat'iy belgilanmoqda. Ta'lim va ilm-fanga oid normalar ham qariyb 2 barobarga oshayotganini ko'rishimiz mumkin.

Xalqimizda "Ustoz otangdek ulug'" degan naql bor va ustozlarni hurmat qilish milliy xarakterimizning ajralmas qismidir. Afsuski, 2017-yilgacha o'qituvchilar, hatto maktab o'quvchilarining ham paxta terimiga majburlanishi, bu davrda mashg'ulotlar chetga surib qo'yilishi, bu ham yetmagandek, ayrim rahbarlarning o'z vakolatlaridan chetga chiqib, ta'lim muassasalari o'qituvchilarini obodonlashtirish, hatto qurilish ishlariga majburlanishi yaqin o'tmishimizning qora dog'lari bo'lib, bu oxir-oqibat ta'lim tizimiga putur yetkazdi.

Ta'kidlash joizki, amaldagi konstitutsiyada ta'limga oid normalar birgina moddada ask ettirilgan edi. Yangi tahrirga ko'ra, 50-51-52-moddalar ushbu sohaga bag'ishlanadi. Jumladan, ta'lim olish huquqi kafolatlanishi bilan bir qatorda, davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishi bir xilda qo'llab-quvvatlanishi ilk bor rasmiy asosda mustahkamlanmoqda. Qolaversa, inklyuziv ta'lim-tarbiya atamasining konstitutsiyada aks etishi e'tiborga molik. Eng asosiy o'zgarish o'qituvchilarning maqomi bilan bog'liq. Ya'ni, 52-moddada avval bo'lmagan yangi norma kiritilmoqda. Unga ko'ra, o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Ushbu normalarning konstitutsiyaga kiritilishi zamonaviy o'zbek pedagogikasida yangi davrni boshlab berishi shubhasiz.

Shuningdek, yangi tahrirdagi konstitutsiya loyihasida ilk marotaba oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, nodavlat ta'lim tashkilotlari qo'llab-quvvatlanishi to'g'risidagi qoidalar kiritilmoqda. Ushbu normalarda yosh avlodning zamonaviy mutaxassisliklarni egallashi, oliy ma'lumotli bo'lishi, ta'lim

tizimini barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratishga qaratilgan muhim qoidalar belgilangan.

Ishonamizki, Ushbu normalarning kiritilishi ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog xodimlarni majburiy mehnatga jalb qilish bilan bog'liq bo'lgan huquqbuzarliklar, ularning kasbiy faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish, huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini davlat tarafidan himoya qilishga, shuningdek, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularni ijtimoiy va moddiy farovonligini yanada yaxshilash uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun loyihasi.
2. www.lex.uz
3. www.uza.uz